

Xo'janova Gulshoda
tayanch doktorant
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
O'zbekiston

HUDUDLARNING IQTISODIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA TABIIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI

Annotatsiya. Ushbu maqola hududlarning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda tabiiy resurslardan samarali foydalanishning zamonaviy usullarini o'rganadi. Mamlakat iqtisodiy barqarorligini saqlash uchun global miqyosda qo'llaniladigan turli strategiyalarni o'rganadi.

Kalit so'zlar: tabiiy resurslar, atrof muhit, muhofaza qilish, barqaror iqtisodiy rivojlanish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, qayta tiklanadigan energiya, resurstejamkor.

Гулнода Хужанова
Базовый докторант
Каршинский инженерно-экономический институт
Узбекистан

МЕТОДЫ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРИРОДНЫХ РЕСУРСОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНОВ

Аннотация: В данной статье рассматриваются современные методы эффективного использования природных ресурсов для обеспечения экономического развития регионов. Исследует различные стратегии, используемые во всем мире для поддержания экономической стабильности страны.

Ключевые слова: Природные ресурсы, окружающая среда, охрана, устойчивое экономическое развитие, эффективное использование природных ресурсов, возобновляемые источники энергии, ресурсоэффективность.

Khujanova Gulshoda
doctoral student

**METHODS OF EFFECTIVE USE OF NATURAL RESOURCES IN
PROVIDING THE ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE REGIONS**

***Abstract:** This article examines modern methods of effective use of natural resources to ensure the economic development of regions. Explores various strategies used globally to maintain the country's economic stability. The study emphasizes the importance of creating and maintaining natural conditions favorable for human life on earth, harmonizing the development of nature and society, and solving the economic and ecological problems of modern society.*

***Keywords:** natural resources, environment, protection, sustainable economic development, effective use of natural resources, renewable energy, resource efficiency.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning samarasi ko‘p jihatdan hududlarni rivojlantish va mavjud homashyo resurslaridan samarali foydalanish darajasiga bog‘liq. Hozirgi kunda sanoat ishlab chiqarish faoliyati kengayishda va dunyo aholi soni ortib borishda davom etar ekan, tabiiy resurslarga bo‘lgan talab kuchayib, ular mavjud zahiralardan samarali foydalanish muammosini keltirib chiqaradi. Atmosferaning ifloslanishi natijasida iqlimning o‘zgarishi, minglab gektar o‘rmonlarning kesilishi oqibatida bioxilma-xillikning yo‘qolishi, cheklangan resurslar sharoitida qazilma boyliklaridan ko‘p miqdorda foydalanish e‘tibor talab qiladigan dolzarb masalalardir. Hududlarni iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash, atrof-muhitni muhofaza qilishning zamonaviy usullari ushbu muammolarni resurslardan barqaror foydalanishga yordam beradigan innovatsion yechimlar va amaliyotlar orqali hal qilishga yordam beradi. Ushbu tadqiqot mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish uchun butun dunyo bo‘ylab qo‘llaniladigan yangi strategiya va texnologiyalarni ko‘rib chiqadi.

Ko'p yillar iqtisodiy geografiya sohasida ilmiy tadqiqot ishi olib borgan Yu.G.Saushkinning fikriga ko'ra "elektr energiya olish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab-chiqarish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan tabiiy komponentlarni va sanoat uchun xomashyolarni" tabiiy resurslar deb ta'riflaydi va asosiy e'tiborni iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda xomashyo sifatida ishlatilayotgan tabiiy resurslar zahirasi va undan samarali foydalanishga qaratgan [3].

L.D. Badriyevaning e'tirof etishicha, "hududiy resurs salohiyatidan samarali foydalanish deganda hududning resurslarni jalb etish darajasi va mazkur resurslarni qo'llash natijasida amalga oshiriladigan texnologik jarayonlarning samaradorligi" tushuniladi [4].

Ushbu tadqiqot ishida iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy usullarini muvaffaqiyatli amalga oshirgan turli mintaqalardagi amaliy tadqiqotlarni tahlil qilib, sifatli tadqiqot metodologiyasidan foydalanildi. Ma'lumotlar hududiy statistika hisobotlaridan akademik jurnallardan, va ushbu soha bo'yicha mutaxassislar bilan suhbatlardan to'plandi. Bugungi kunda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish uchun bir qancha zamonaviy usullar mavjud. (1-rasm)



1-rasm. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning zamonaviy usullari.¹

¹ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan

Tasvirda ifodalangan usullar hududlar iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda tabiiy resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlardir. Har bir inson bu jarayonda o'z hissasini qo'shishi mumkin:

-qayta tiklanadigan energiya manbalari bo'lgan quyosh, shamol va gidroenergoyadan foydalanish natijasida tabiiy resurslarni tejab, neft, gaz yoki ko'mir kabi tugaydigan resurslarga bo'lgan talabni kamaytirish;

-plastmassalar, qog'ozlar va metallarni qayta ishlash orqali chiqindilarni kamaytirish va tabiiy resurslarni tejash;

-atrof-muhitga bo'layotgan zararli ta'sirlar holatini doimiy nazorat qilib, ekologik muammolarni erta bosqichida hal qilish;

-qishloq xo'jaligida hosildorlikni oshirish uchun sun'iy o'g'itlar o'rniga tabiiy o'g'itlarni qo'llash, dronlar, aqlli sensorlar va sun'iy intellektdan foydalanish;

-tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga oid ilmlarni o'rganib, atrof-muhitga bo'lgan munosabatni o'zgartirish;

-yomg'ir suvlarini yig'ish va qayta ishlash, tomchilab sug'orish texnologiyalaridan foydalanib, suv resurslarini tejash;

-zavod va fabrikalardan chiqayotgan zaharli gazlarni kamaytiradigan yangi texnologiyalarni, masalan, filtrlash va tozalash tizimlarini joriy etish;

-sun'iy yo'ldosh monitoring tizimlari, raqamli kartografiya va IoT (Internet of Things) orqali ayni vaqtda tabiiy resurslardan foydalanish miqdori, sifati va iste'molini tahlil qilish va boshqarish;

-arxitekturasida va qurilish jarayonida energiyani tejaydigan, izolyatsiya texnologiyalari orqali energiya sarfini kamaytiradigan yashil binolarni barpo etish;

-gidrogen dvigatellar, elektromobil vositalari, yurish yoki velosipedga asoslangan harakatlanuvchi transport tizimlaridan foydalanib, atrof-muhitga zarar keltirmaslik va yoqilg'i resurslarini tejash;

-ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni o'zida birlashtirgan, hududlarni iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi, tabiiy resurslardan samarali foydalanishni nazorat qilish va ularni qayta tiklashga qaratilgan strategiyalarni amalga oshirishga ko'maklashish.

Mintaqa hududlarining iqtisodiy rivojlanish darajasiga tabiiy resurslar salohiyati, inson omili, moliyaviy, ekologik va institutsional o'zgarishlar ta'sir o'tkazadi. Raqobatbardoshlik darajasiga hududning geografik joylashuvi, iqlim sharoitlari, yer-suv, mineral xomashyo va mehnat resurslarini o'zida jamlovchi tabiiy resurslar salohiyati asosiy rol o'ynaydi. Qashqadaryo viloyati manbalardan olinayotgan suv miqdorining iqtisodiy tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagi jadvalda (1-jadval) aks ettirilgan.

1-jadval

Manbalardan olinayotgan suv miqdorining iqtisodiy tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi (mln m³)[7]

T/r	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Yillar					
			2018	2019	2020	2021	2022	2023
1	Manbalardan olingan jami	mln m ³	5100,0	5447,6	5641,2	4602,8	4508,6	4526,4
	salmog'i	%	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
2	Sug'orishga	mln m ³	4722,0	5087,1	5400,0	4361,3	4228,7	4185,9
	salmog'i	%	92,6	93,4	95,7	94,8	93,8	92,5
3	Sanooat	mln m ³	78,0	13,3	201,0	19,0	17,4	14,1
	salmog'i	%	1,5	0,2	3,6	0,4	0,4	0,3
4	Kommunal xo'jaligiga	mln m ³	233,0	207,7	121,3	91,0	107,7	143,2
	salmog'i	%	4,6	3,8	2,2	2,0	2,4	3,2
5	Energetika	mln m ³	986,3	903,7	800,0	834,6	551,2	442,8
	salmog'i	%	19,3	16,6	14,2	18,1	12,2	9,8
6	Baliqchilik	mln m ³	12,0	9,8	5,2	6,6	2,8	6,1
	salmog'i	%	0,2	0,2	0,1	0,1	0,1	0,1

Biz ushbu jadval ma'lumotlaridan 2018-2023-yillar davomida Qashqadaryo viloyatida manbalardan olinayotgan suv miqdorining iqtisodiy tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi ko'rishimiz mumkin. Taqsimlanayotgan suv miqdorining katta qismi sug'orish ishlari uchun sarflangan bo'lib, 2023-yilda 92,5%ni tashkil etgan. Energetika sohasiga yo'naltirilgan suv miqdori 2018-yilda 19,3% bo'lgan bo'lsa,

2023-yilga kelib 9,8% ya'ni 9,5%ga kamayganligini guvohi bo'lamiz. Muqobil energiya manbalaridan foydalanish evaziga suv resurslarini tejashimiz va samarali foydalanishimiz mumkin ekan.

Xulosa. Tez o'zgaruvchan dunyoda hududlarni barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda tabiiy resurslardan samarali foydalanishning zamonaviy usullari juda muhim hisoblanadi. Bu boradagi harakatlar samaradorligini oshirish uchun quyidagi tavsiyalar taklif etiladi:

Mintaqada tabiiy resurslardan samarali foydalanish borasidagi huquqiy asosni shakllantirish, qonunchilikni mustahkamlash va qat'iy bajarilishini nazorat qilish;

Tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy qilish. Olib borilayotgan tadqiqot va ishlanmalarga sarmoya kiritib, barqaror texnologiyalar va amaliyotdagi innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash;

Qish mavsumida kuzatiladigan energetika inqirozi kabi muammolarning yechimi sifatida mamlakat hududlarida muqobil energiya manbalarini oshirish, mavjud energiya quvvatlarini modernizatsiyalash zarur;

Suv resurslarini tejash uchun zamonaviy sug'orish texnologiyalari, qayta ishlangan suv yoki yomg'ir suvini yig'ish tizimlari orqali tabiiy suv resurslaridan yana foydalanish imkoniyatini yaratish;

Qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan texnologiyalarini modernizatsiyalash, ishlab chiqarish quvvatlarini zamonaviylashtirish;

Shaxsiy va jamoat transport tizimi sohasini atmosfera havosiga kam zarar keltiradigan va energiya iste'moli tejamkorligiga erishilgan yashil yoqilg'i resurslariga o'tkazish;

Jamiyatimizning yashil iqtisodiy barqarorlikka erishishini ta'minlash maqsadida ekologik ta'lim berish samarasi to'g'risida targ'ibotlarni kuchaytirish orqali ekologik madaniyatni shakllantirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi PF-5742-son "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida" farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-sentabrdagi 720-son “Tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanishni ta’minlashning hamda davlat budjeti daromadlarini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori.
3. Агирречу А. А. Ю.Г. САУШКИН И ВОПРОСЫ ГЕОГРАФИИ //Социально-экономическая география: история, теория, методы, практика. – 2016. – С. 25-35.
4. Бадриева Л.Д. Современные тенденции и закономерности эффективного использования ресурсного потенциала. // Российское предпринимательство. 2011. № 10. С.57.
5. Хо‘janova Gulshoda Otamurodovna “Qashqadaryo viloyatida tabiiy resurslardan foydalanish istiqbollari” Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali. 2023-yil, dekabr. № 11-12sonlar
6. Хо‘janova Gulshoda Otamurodovna “Hududlarda tabiiy resurslar salohiyatidan samarali foydalanish” “Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities”. Hosted online from Plano, Texas, USA. Date: 1st April – 2024. – P.139-143.
7. Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi ma’lumotlari
8. Эргашев Р. Х., Курбанов А. Б., Файзиева Ш. Ш. Совершенствование государственной поддержки малого бизнеса и частного предпринимательства в Узбекистане //Феномен рыночного хозяйства: от истоков до наших дней. Бизнес, инновации, информационные технологии, моделирование. – 2019. – С. 544-554.
9. Курбанов А. Б., Равшанов А. Д. РОЛЬ ИНВЕСТИЦИЙ В РАЗВИТИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ //Экономика и социум. – 2022. – №. 10-1 (101). – С. 411-416.
10. Kurbonov A. B., Jalilova N. M., Safarov K. B. Directions for the Formation of Cooperation in the Field of Agricultural Entrepreneurship //Экономика и социум. – 2020. – №. 12 (79). – С. 151-156.

11. Курбанов А. Б. РОЛЬ УСЛУГ В АГРАРНОМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ // Экономика и социум. 2023. №4-1 (107). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-uslug-v-agrarnom-predprinimatelstve> (дата обращения: 23.10.2024).
12. Kurbanov A. B., Abdullaev J. Economic methods of regulating the investment process by state //European Scholar Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 405-409.
13. Акрамовна О. N. SCIENTIFIC ON INCREASING THE EFFICIENCY OF CROP PRODUCTION ON FARMS AND PEOPLE'S HOMESTEADS RECOMMENDATION ANALYSIS // " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2022. – С. 300-303.
14. Khamraeva S., Ochilova N. Assessment of innovative potential of farmers and homestead land owners //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 480. – С. 03003.
15. Ochilova N. USE OF THE ADVANCED EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES IN THE DEVELOPMENT OF FARMING AND HOUSEHOLDS //International Conference on Multidisciplinary Research. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 73-76.